

**UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARINING O'QUV ATLASINI
O'RGANISHDA INTERFAOL TA'LIM BERISH METODIKASI
(8-, 9-sinflarning o'quv atlaslari misolida)**

Arabboyev Asliddin Rafiqjon o'g'li

Andijon davlat universiteti

Tabiiy fanlar fakulteti geografiya yo'nalishi

Tel: +998901403566

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-, va 9-sinflar kesimida o'quv atlaslarini o'rganish metodikasi oson va tushunarli tarzda misollar yordamida metodik tavsiyalar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Xarita, taqqoslash metodi, chizig'iga moslang usuli, guruhlashtiring metodi.

KIRISH

Bizga ma'lumki, geografiya fani ikki yirik tarmoqqa bo'linadi. Ular tabiiy geografiya va ijtimoiy-iqtisodiy geografiyadir. Tabiiy geografiyadan farqli o'laroq ijtimoiy-iqtisodiy geografiya ham rivojlanib bormoqda.

Xarita – yerning va boshqa sayyoralar yuzasining kichraytirilib va umumlashtirilib, shartli belgilar bilan tekis yuzaga tushirilgan tasviri.

Xaritalarda Yer yuzasidagi hamma narsani ko'rsatib bo'lmaydi. Shuning uchun xaritalar nimalarni aks ettirishiga qarab har xil bo'ladi. Geografik xaritalarni shartli ravishda 3 turga bo'lish mumkin: tabiiy geografik, siyosiy-ma'muriy va ijtimoiy-iqtisodiy xaritalar.

Ijtimoiy-iqtisodiy xaritalar – ijtimoiy, xo'jalik, hodisa va jarayonlarni aks ettiradi. Bunday xaritalarning mavzulari bir xil bo'lib, ular tarixiy, aholi, xo'jalik va uning tarmoqlari, xizmat ko'rsatish sohasi, ta'lim va madaniyat, rekreatsion, transport, tashqi iqtisodiy aloqalar va boshqalarga ajratiladi.

Bunday xaritalarning eng yirik guruhlaridan biri bu sanoat xaritalaridir. Chunki, ular bir tarafdin har bir sanoat turlari haqida ma'lumot bersa, ikkinchi tarafdin alohida bir hudud, mamlakat yoki jahonning sanoat ishlab chiqarishi haqida ma'lumot beradi. Shuningdek, bunday xaritalar sanoatning rivojlanish tarixi va bosqichlarini ham aks ettira oladi.

Qishloq xo'jaligi xaritalari mazkur sohaning geografik joylashuvi, uning rivojlanish shart-sharoitlarini, atrof-muhit bilan o'zaro ta'sirini ifoda etadi. Ushbu sohada dehqonchilik, chorvachilik va kompleks xaritalarni alohida o'rganish mumkin. Bunday xaritalarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ekilgan yerlarning maydoni, ekinlarning hosildorligi, chorvachilik turlari va ularning mahsuldorligi, qishloq xo'jaligini yuritish shart-sharoitlarini aks ettiradi.

Aholi xaritalari, asosan, aholi soni dinamikasi, geografik joylashuvi, zichligi, aholining jins va yosh tarkibi, demografik jarayonlar (tug'ilish, o'lim, nikoh va boshqa), aholi migratsiyasi, uning kasbiy faolligi va turli sohalarda bandligi, aholining milliy tarkibi kabi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. [1]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Atlas – to’la va aniq ma’lumotga ega bo’lgan, yagona dastur asosida tuzilgan, tartibga solingan xaritalar to’plamidir. “Atlas” atamasi flamand xaritashunosi Merkator tomonidan kiritilgan. U o’zi tuzgan xaritalar to’plamini (1595-yil) Livanning afsonaviy qiroli Atlas nomi bilan ataydi. Birinchi xaritalar to’plami II asrda Klavdiy Ptolemey tomonidan tuzilgan.

Qavariq Yer yuzasini tekis yuzada tasvirlash uchun xarita andazalaridan foydalaniladi. Xarita andazalari sayyoramizning qavariq yuzasini tekis yuzada tasvirlashning matematik usullaridir. [2]

8-sinf o’quv atlasini O’zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya, va davlat kadastr davlat qo’mitasi tomonidan 2016-yili Toshkentda chop etilgan. Ushbu o’quv atlasini o’zining sarmamunligi va puxtaliligi bilan ajralib turadi. O’quv atlasining ilk kartasi O’zbekiston jahon kartasida deb nomlanadi. O’quv o’tlasi o’z ichiga tabiiy karta, siyosiy-ma’muriy karta, Aholi, mehnat resurslari kartasi, yoqilg’i sanoati, elektronenergetika, qora va rangli metallurgiya, neft va neft-kimyo sanoati, mashinasozlik va metallni qayta ishlash, qurilish materillari ishlab chiqarish, yig’ma temir-beton konstruksiyalari va mahsulotlarni ishlab chiqarish, yengil sanoat va oziq-ovqat sanoati, qishloq xo’jaligi, donli ekinlar, paxtachilik, uzumchilik, meva-rezavor ekinlari, sabzavot ekinlari, poliz va oziq-ovqat ekinlari, kartoshka, yem-xashak ekinlari, chorvachilik, irrigatsiya va melioratsiya, Respublikamizning tashqi iqtisodiy aloqalari, ta’lim muassasalari, tibbiyot, madaniyat va turistik, xalq xunarmandchiligi, transport va O’zbekistonning iqtisodiy rayonlar kartasini o’z ichiga ichiga oladi. Mazkur o’quv atlasida rang berish usuli, diagrammalar (ustunli, doiraviy) kabi metodlardan samarali foydalanilgandir.

9-o’quv atlasini O’zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya, va davlat kadastr davlat qo’mitasi tomonidan 2016-yili Toshkentda chop etilgan. Ushbu o’quv atlasini ma’lumotlarga boyligi, sarmazmunliligi, bir-birini to’ldirishi bilan boshqa o’quv atlaslaridan farq qiladi. O’quv atlasini yer, suv, biologik resurslar, ekologik muammolar, transport, aholi zichligi, til oilalari va xalqlar, dinlar, irqlar, urbanizatsiya, hayot darajasi, mineral xomashyo resurslari, yoqilg’i sanoati, elektroenergetika, qayta ishlovchi sanoat, qora va rangli metallurgiya, mashinasozlik, agroiqlimiy resurslar, qishloq xo’jaligi va uning tarmoqlari, chorvachilik bo’yicha to’xtalib o’tgach, jahonning regional qismiga ham to’xtalib o’tadi. Regional qismida qit’alarning subregionlari va ayrim davlatlarga atroflicha tavsif berilgan.

NATIJALARI VA MUHOKAMA

1. Taqqoslash metodi.

Ma’lumki, 8-sinf o’quv atlasidagi viloyatlarni o’rganishda urbanizatsiya darajasini aniqlash ham muhim ahamiyatga ega. Masalan,

Viloyat, respublika nomi nomi	Shahar aholi %	Qishloq aholisi %
Toshkent	72.9	27.1
Sirdaryo	41.3	58.7
Jizzax	47.8	52.2
Andijon	52.9	47.1

Farg'ona	57.3	42.7
Namangan	64.1	35.9
Samarqand	39.1	60.9
Buxoro	38.0	62.0
Navoiy	48.7	51.3
Qashqadaryo	43.3	56.7
Surxondaryo	36.4	63.6
Xorazm	33.5	66.5
Qoraqalpog'iston	49.6	50.4

2.Chizig'iga moslang usuli.

Quyidagi berilgan ma'lumotlarni bir-biriga moslang.

Respublika yoki viloyat nomi	Ma'lumotlar
Toshkent	Qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoati 22.0 % ga teng.
Sirdaryo	54 % fermer xo'jalik yerlariga to'g'ri keladi
Jizzax	Viloyatda 60.9 so'yilgan vaznda go'sht ishlab chiqarilgan.
Andijon	Sug'oriladigan yerlar 272.2 ga
Farg'ona	Kunduzgi umumiy o'rta ta'lim muassalar soni 1225 ta
Namangan	5813 nafar o'quvchi akademik litseylarda o'qiydi
Samarqand	517 nafar professor-o'qituvchilar bor
Buxoro	Har bir davolash o'rniga 237.6 kishi to'g'ri keladi
Navoiy	2-5 ta teatrlar bor
Qashqadaryo	Mamlakatimizda eng yirik megapolis
Surxondaryo	Sanoat mahsulotlari hajmi 3623.6 mlrd ga teng
Xorazm	Qishloq xo'jalik mahsulotlari 1428.6 mlrd ga teng
Qoraqalpog'iston	Avtomobilsozlikning markazi

3.Guruhlashtiring metodi. Ushbu metodda o'quvchilar jadvalda berilgan ma'lumotlar asosida tillar guruhlarining qaysi tillarning qaysi oilaga mansubligiga qarab joylashtiradilar. Masalan, Slavyan guruhi, Baltika guruhi, Germaniya guruhi, Kelt guruhi, roman guruhi, Grek guruhi, Arman guruhi, Eron guhi, Hindariy guruhi, Arman guruhi, Semit guruhi, Berberlar guruhi, Kushit guhi, Chad guruhi, Kartvell guruhi, Abxaz-adiga guruhi, Nax-Dog'iston guruhi, Fin-ugor guruhi, Samodiy guruhi, Turkiy guruhi, Mangol guruhi, Tungus-manchjur guruhi, Niger-Kongo guruhi, Kordofan guruhi, Songay guruhi, Xitoy guruhi, Tibet-Birmang guruhi va boshqalar.

Yirik til oilalar	
Hindyevoropa oilasi	
Afrosiyo (semitoxamit) oilasi	
Kavkaz oilasi	
Dravdiy oilasi	
Ural oilasi	
Oltoy oilasi	
Niger-Kordofan oilasi	
Sin-Tibet oilasi	
Avstroosiyo oilasi	
Paratay oilasi	
Avstroneziya oilasi	
Chukotka-kamchatka oilasi	
Eskimos-Aluet oilasi	
Hind oilalari	
Nil-Sahroi Kabir oilasi	
Koysan oilasi	
Avstraliya oilasi	

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish o'rinliki, umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-, va 9-sinflar kesimida o'quv atlaslarini o'rganish taqqoslang, chizig'iga moslang va guruhlashtiring metodlardan foydalanish dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. O'quvchilarni o'z ustida mustaqil ishlashlariga, ijodkorlikka, intiluvchanlikka undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Payoz Musayev, Jahongir Musayev – 8-sinf geografiyasi. Toshkent-2019
2. P.G'ulomov, H.Vahobov – 7-sinf O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasi. Toshkent-2017
3. 8- va 9-sinf o'quv atlaslari.